



SIMILARITIES AND DIFFERENCES IN THE TRANSLATION OF PERSIAN WORDS, PHRASES, AND WORD COMBINATIONS INTO UZBEK BASED ON SADIQ HIDAYAT'S STORY "GIRDOB"

Dadaxon Ikromov

*3rd-year student of the Persian-English group
Faculty of Eastern Civilization and Philosophy
Tashkent State Institute of Oriental Studies
E-mail: dadaxonikromov457@gmail.com*

N. Khodiyeva

*Senior Lecturer at the Faculty of Persian and Afghan Studies
Tashkent State Institute of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: phrase, translation of expressions, equivalence, literal translation, translation by explanation, Indo-European language family, Altaic language family.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: The Persian language is rich in beautiful and diverse expressions and phraseological units. These are often linked to history, religion, literature, and folk oral traditions, and it is important to give them great attention when translating. In general, through this article, Persian words, word combinations, and phrases, their translation methods, and how they convey meaning and content in Uzbek, as well as their synonyms in Uzbek, will be explained.

SODIQ HIDOYATNING "GIRDOB" HIKOYASI ASOSIDA FORS TILIDAGI SO‘Z, IBORA VA SO‘Z BIRIKMALARINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA O‘XSHASHLIKLAR VA TAFOVUTLAR

Dadaxon Ikromov

*3-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: dadaxonikromov457@gmail.com*

N. Xodiyeva

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi katta o‘qituvchisi

TDSHU

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: fraza, tarjima iboralar, ekivalent, so‘zma-so‘z tarjima, tushuntirish yo‘li bilan tarjima, hind-yevropa oilasi, oltoy tillar oilasi.

Annotatsiya: Fors tili turli go‘zal va xilma-xil iboralar va frazeologik birliklar bilan boy tildir. Ular ko‘pincha tarixiy, diniy, adabiy va xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq bo‘lib, tarjima qilishda ularga katta ahamiyat berish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, mazkur maqola orqali forscha so‘zlar, so‘z birikmalari va iboralar, ularning tarjima usullari va o‘zbek tilida qanday ma‘no va mazmun anglatishi, o‘zbek tilidagi sinonimlari izohlari bilan ochib beriladi.

СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ В ПЕРЕВОДЕ ПЕРСИДСКИХ СЛОВ, ФРАЗ И СЛОВСОЧЕТАНИЙ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК НА ОСНОВЕ РАССКАЗА САДИКА ХИДОЯТА «ГИРДОБ»

Дадахон Икромов

Студент 3-го курса группы персидско-английского отделения

Факультет восточных цивилизаций и философии

Ташкентский государственный институт востоковедения

E-mail: dadaxonikromov457@gmail.com

Н. Ходиева

старший преподаватель факультета персидской и афганской филологии

Ташкентского государственного института востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фраза, перевод выражений, эквивалент, дословный перевод, перевод с объяснением, индоевропейская языковая семья, тюркская языковая семья.

Аннотация: Персидский язык богат красивыми и разнообразными выражениями и фразеологическими единицами. Они часто связаны с историей, религией, литературой и народным устным творчеством, и при переводе им следует уделять большое внимание. В этой статье будут раскрыты персидские слова, словосочетания и выражения, методы их перевода, а также то, как они передают смысл и содержание на узбекском языке, с пояснением их синонимов на узбекском языке.

Tarjima — bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi bo‘lib, u millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishi hisoblanadi. Tarjima qilinayotgan matn asliyat va qayta tiklanganligi xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima kabi turlarga ajratiladi. Asl

nusxani aks ettirish tarziga ko‘ra esa tafsir, tabdil, sharh kabi ko‘rinishlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og‘zaki turi hozirda ham saqlanib qolgan. Demak, muayyan tilda og‘zaki yoki yozma ravishda bayon qilingan fikrni boshqa til vositalari bilan qayta ifodalashga tarjima deyilar ekan.

Fraza - yunoncha “phrasis” so‘zidan olingan bo‘lib ifoda, ibora degan ma‘noni anglatadi. Ibora ham tilning eng nozik va boy ifodalovchi vositalaridan biridir. U so‘z birikmalaridan tashkil topgan bo‘lib, o‘zining har bir tarkibiy qismlarining ma‘nosidan farq qiladi va yangi, aniq bir ma‘no yaratadi. Ibora, ko‘pincha, tilni boyitish, chuqurroq tushunish va madaniy jihatlarni aks ettirishda muhim vosita sifatida ishlatiladi. Tilda iboralarni to‘g‘ri ishlatish, nafaqat muloqotda, balki ilmiy va adabiy yozuvlarda ham muhim ahamiyatga egadir. Aynan shu barqaror so‘z birikmalari, tilshunoslikning Frazzeologiya bo‘limi o‘rganadi.

Fors o‘zbek tili bilan qardosh til hisoblanib, ular ba‘zi bir gramatik xususiyatlar jihatidan bir-biriga juda yaqin, ammo turli til oilalariga mansubdir. Fors tili hind-yevropa tillar oilasining eroniy tarmog‘iga kirsa, o‘zbek tili Oltoy tillar oilasining turkiy tarmog‘iga tegishli qarluq guruhiga kiradi. O‘zbek tilida juda ko‘p forsiy so‘zlar mavjud. Chunki tarixiy jihatdan ushbu tillar fors-mo‘g‘ul va turkiy davlatlarning madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan. O‘zbek xalqi qadimgi eroniy tillar bilan uzoq vaqt davomida aloqada bo‘lgan va shu sababdan o‘zbek va fors tillari har xil oilalarga mansub bo‘lsa ham, tarixiy, madaniy, va lug‘aviy jihatdan bir-biriga juda yaqindir. O‘zbek tilining ayniqsa, adabiy va tarixiy matnlarida forscha so‘z va iboralar juda ko‘p ishlatilgan. Ularning ko‘pchiligi fors tilidagi so‘z va iboralar bilan bir xil ma‘no kasb etadi. Ba‘zilari esa aksincha ma‘no beradi.

Fors tili turli tuman iboralar va frazeologik birliklar juda boy tildir. Ular ko‘pincha tarixiy, diniy, adabiy va xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq va shu sababdan tarjimada to‘g‘ri ekvivalent topish muhim hisoblanadi. Fors tilidagi iboralar ba‘zan so‘zma-so‘z tarjima qilinganda tushunarsiz yoki noto‘g‘ri ma‘no berishi mumkin. Quyida ularni tarjima qilishda qo‘llanadigan ba‘zi usullar bilan tanishamiz.

So‘zma-so‘z tarjima qilish – bu usul juda samarali usul bo‘lib, ammo ba‘zi hollarda bu usul bilan qiyinchilikka duch kelamiz. Chunki iboralarni tarjima qilishda ma‘no vujudga kelmasligi mumkin.

Ekvevalent topish – forscha iboraga mos o‘zbekcha iborani to‘g‘ri tanlay olish muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda aytishimiz lozimki, fors va o‘zbek iboralari bir-biriga juda o‘xshash va yaqindir. Ba‘zi o‘zbek tilidagi iboralar fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ular ma‘nosi xuddi forsiy kabidir, lekin ayrim iboralar o‘zbek tilida umuman boshqa ma‘no va mazmun beradi.

Tushuntirish yo‘li bilan tarjima qilish – agar biz tarjima qilayotgan iboraning o‘zbek tilida ekvevalenti bo‘lmasa, ushbu iboraning ma‘nosini tarjima qilish, tushuntirish yo‘li bilan ham qilish

mumkin. Tarjimada asliyatga mos so‘z o‘rniga ko‘proq uning anglatadigan ma‘nosini tushuntirishga asoslangan tarjimadir Bu usul butun dunyo tillari tarjimasida juda keng tarqalgandir.

Quyida Sodiq Hidoyatning “Girdob” hikoyasi asosida fors tilidagi so‘z, ibora va so‘z birikmalarining o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi o‘xshashliklari va tafvutlarini izohlab beramiz:

Humoyun o‘zi bilan pichirlashardi” bu gapdagi “ - Hamiyon ba خودش زیر لب می گفت: آیا راست است؟ birikmasi pichirlamoq ma‘nosida kelgan hisoblanadi.

Bu gapdagi فکرش به جایی نمی رسید: هر چه کوشش می کرد نمی توانست فراموش بکند... فکرش به جایی نمی رسید iborasini so‘zma- so‘z tarjima qilsak, uni fikri bir joyga yetmaydi degan ma‘no chiqadi. Lekin iborani o‘zbek tilida bir to‘xtamga kelolmasdi deb tarjima qilamiz. Chunki bu o‘zbek tilida ham keng qo‘llaniladi.

Bu gapda ishlatilgan یک دل و یک رنگ بودند و هیچ چیز را از یکدیگر پنهان نمی کردند. یک دل و یک رنگ ishlatilgan iborasi o‘zbek tilida ham o‘z muqobiliga ega bo‘lib, bir tan-u jon bo‘lmoq degan so‘zga tengdir. Bunda biz ko‘rishimiz mumkinki, fors tilidagi iboralar o‘zbek tiliga so‘zlari o‘zgargan holatda ko‘chgan. Ammo ma‘no jihatidan birdir.

بدری که زیر چشمی متوجه او بود پرسید: کاغذ کی بود؟

iborasi o‘zbek tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilsak, ko‘z ostida birovni tushunmoq degan tarjima chiqadi. Lekin bu birikmani badiiy jihatdan tarjima qilsak, ko‘z qiri bilan kuzatmoq degan ma‘noda ishlatilsa, tarjima mufassal va aniqroq bo‘ladi.

so‘zi ushbu gapda berilgan دخترش هما بدون کم و زیاد شبیه بهرام بود، نه به او رفته بود و نه به مادرش o‘zbek tiliga tortgan deb tarjima qilamiz. Gapning to‘liq tarjimasi: “Qizi Humo hech qanday o‘zgarishsiz ya‘ni xuddi Bahromga o‘xshardi. Na unga o‘xshaydi, na onasiga”

bu jumlada esa دست از پا درازتر، هم که بر می گردی دست از پا درازتر، یک جوراب هم برایم نیاوردی birikmasi bo‘sh qo‘l bilan yoki quruq qo‘l bilan degan manoda kelgan. Birikmaning so‘zma-so‘z tarjimasi esa qo‘l oyoqdan uzunroq degan ma‘no beradi. Bu birikma yana bir gapimizning isboti bo‘ldiki, har doim ham tarjimaning bu usuli mos kelavermaydi. “Qaytgan payting qo‘ling bo‘m-bo‘sh va qup-quruq, hatto bitta paypoq ham olib kelmading..”

– Nahotki, ko‘rmadingmi? U bu bolani ko‘z qorachig‘idek yaxshi ko‘rardi...” bu jumladagi ko‘z qorachig‘i deb tarjima qilinyapti.

“Biri o‘zini o‘ldirgan, bir o‘zini kechirgan, men javob berishim kerakmi? Men hisob berishim kerakmi?” bu gapda ham xuddi o‘zbek tilida ham xuddi o‘zidek ishlatiladi. Bu esa fors va o‘zbek tillarining bir-biriga qanchalik yaqin ekanligini ko‘rsatadi.

– حالا چشمم باز شد “Endi ko‘zim ochildi” bu esa o‘zbek tiliga o‘zgarimas ya‘ni so‘zma-so‘z tarjimaning bir namunasidir.

– هشت سال است که در خانه تو بودم همه جور ذلت کشیدم با فلاکت تو ساختم سه سال نبودى خانه ات را نگه داشتم
 “Sakkiz yildirki, sening uyingdaman. Hamma xor-u zorlikka chidadim, seni baxtsizliging, musibating bilan yashadim. Uch yil yo‘q bo‘lding, uyingni asradim...” bu gapdagi ba‘zi jumla va so‘zlarni tarjima qilishda tushuntirish usulidan foydalanamiz.

– همایون مات و منگ جای خودش ایستاده بود
 “Humoyun hang-u mang, karaxt bo‘lib, joyida qotib qoldi” bu yerdagi منگ و مات birikmasi ba‘zi hollarda shu holda ham ishlatiladi. Ekvevalent sifatida esa hang-u mang, karaxt degan so‘z va birikmalar qo‘llaniladi.

– از همه بدتر زنش هشت سال پنهانی او با یگانه دوستش راه داشته
 “Hammasidan ham yomoni sakkiz yildan buyon xotini yashirincha yakka-yu yagona do‘sti bilan aloqada bo‘lgan yoki uchrashib yurgan...” bu gapda ham tushuntirish usulidan foydalanamiz. fe‘l birikmasi yo‘lga ega bo‘lmoq emas, balki aloqada bo‘lmoq, uchrashib yurmoq ma’nosida kelayapti.

– باقى زندگى اش را در آنجا به سر ببرد
 “Qolgan hayotini o‘sha yerda o‘tkazsa...” bu gapdagi سر بردن fe‘l birikmasi boshiga olib bormoq deb emas, o‘zkazmoq, hayot kechirmoq deb tarjima qilinyapti.

Fors tilidagi so‘z, so‘z birikmalari va iboralar va ularning o‘zbek tiliga tarjimasi, ularning o‘xshashligi va tafovutlari haqida xulosa qiladigan bo‘lsak, ikkala til orasidagi madaniy va tilshunoslik jihatdan chuqur bog‘liqlik seziladi. Fors va o‘zbek tillarida so‘zlar, iboralar juda ko‘p o‘xshashliklarga ega. Ayrim birikmalar bevosita o‘zbek tiliga o‘tgan bo‘lsa, ba‘zilari ma’no jihatdan o‘xshash, lekin boshqa so‘zlar bilan ifodalangan. Bu madaniy va tarixiy aloqalarning uzoq asrlardan beri davom etib kelayotganining dalilidir. O‘zbek tilini yaxshi bilgan odam uchun fors tilidagi so‘z, so‘z birikmalari va iboralarni tushunish ancha osonroq bo‘ladi. Iboralar orqali fors va o‘zbek xalqlari o‘z dunyoqarashini, hayotga bo‘lgan qarashlarini, donishmandligini va madaniy an‘analarini ifoda etgan. Fors tilini bilgan odam uchun esa o‘zbek tilidagi iboralarni tushunish juda oson, shuningdek, o‘zbek tilidagi forscha ta’sirga ega iboralarni tushunish fors tilini o‘rganishga ham yordam beradi. Bu ikki til orasidagi bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki, tillar faqat lingvistik hodisa bo‘lib qolmay, balki ular xalqlarning o‘zaro aloqalari, tarixiy jarayonlari va madaniy almashinuvining ko‘zguvidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. صادق هدایت "سه قطره خون" چاپ سوم تهران 1903 داستان گرداب صفحه 23 تا 42
2. M. Sh. Omonov Tarjima nazariyasi va amaliyoti O‘quv qo‘llanma Toshkent “Zebo”, 2023. 212 b.
3. E. Ochilov Tarjima nazariyasi va amaliyoti O‘quv qo‘llanma. - T., 2012. 124 b.
4. Doniyorov A.X., Bo‘riyev O.B., Ashirov A.A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. Darslik. – Toshkent “NFMSH”, 2020.
5. Рубинчик Ю. А. Персидско-русский словарь. – М., 1970. – 790 с.